


IV. XIZMATLAR

Xizmatlar sohasini rivojlantirish ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotini shakllantirishning eng muhim shartlaridan biri hisoblanadi. Bugungi kunda mamlakatda olib borilayotgan bozor islohotlari jamiyatni rivojlantirishning eng muhim ijtimoiy-iqtisodiy vazifalarini hal qilishda xizmat ko'rsatish sohasining rolini oshirishga katta ta'sir ko'rsatadi.


Xizmatlar sohasida 82,1 mingdan ortiq korxonalar va tashkilotlar faoliyat ko'rsatmoqda, ushbu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan 9,7 % ga ko'paydi. Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning ulushi tarkibida 01.04.2022-yil holatiga eng katta ulushni boshqa xizmatlarda (39,2 %), savdo xizmatlarda (39,0 %), yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda (8,5 %), axborot va aloqa xizmatlarda (5,6 %), eng kam ulushni tashish va saqlashda (5,2%), sog'liqni saqlash xizmatlarida (2,5 %) tashkil etildi.

Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning ulushi, foizda (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

2021 - yil yanvar-mart



2022 - yil yanvar-mart




**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ishlab chiqarilgan
(ko'rsatilgan) bozor xizmatlarning hajmi
2022-yil yanvar-mart oylarida**

	<i>Mrd. so'm</i>	<i>O'sish sur'ati, %</i>	<i>Jamiga nisbatan %</i>
Xizmatlar – jami	27997,5	119,8	100,0
aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	2762,4	134,7	9,9
moliyaviy xizmatlar	9719,5	139,9	34,7
transport xizmatlari	2644,5	118,4	9,4
shu jumladan: avtotransport xizmatlari	1600,6	111,0	5,7
yashash va ovqatlanish xizmatlari	849,1	110,8	3,0
savdo xizmatlari	6200,3	108,3	22,1
ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	1016,3	111,9	3,6
ta'lim sohasidagi xizmatlar	1271,6	91,0	4,5
sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	560,6	100,7	2,0
ijara xizmatlari	400,7	99,8	1,5
kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	170,0	105,9	0,6
shaxsiy xizmatlar	377,1	97,6	1,3
me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	706,1	95,0	2,6
boshqa xizmatlar	1318,9	105,6	4,8

Xizmatlar tarkibida eng katta ulushni moliyaviy xizmatlar (34,7 %), savdo xizmatlari (22,1 %), transport xizmatlari (9,4 %) va aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (9,9 %) tashkil etadi. Xizmatlar umumiy hajmida past ulushlarni kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar (0,6 %) hamda shaxsiy xizmatlar (1,3 %) egalladi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha xizmatlar tarkibi, foizda
(2022 - yil yanvar–mart oylari)



Bozor xizmatlarining umumiy hajmidagi moliyaviy xizmatlari 34,7 % eng yuqori ulushni tashkil etadi. Moliyaviy xizmatlar oddiy taqsimlash mexanizmidan iste'molchiga yo'naltirilgan bozor talablarini shakllantirish jarayonlarida faol ishtirokchiga aylandi. Hozirgi vaqtda, moliyaviy xizmatlar iqtisodiyotda ko'rsatilgan jami xizmatlar hajmining sezilarli qismi hisoblanadi.

Savdo xizmatlari tarkibida ulgurji savdo (avtomobillar va motosikllar savdosidan tashqari) xizmatlari yuqori ulushni tashkil etadi-47,1%.




Tumanlar kesimida savdo xizmatlarning hajmi
(2022- yil yanvar-mart oylari)

	<i>Jami</i>		
	<i>mlrd. soʻm</i>	<i>2021- yil yanvar-martga nisbatan, %</i>	<i>Savdo xizmatlari hajmida tumanlarning ulushi, %</i>
Toshkent shahri	6200,3	108,3	100,0
<i>tumanlar:</i>			
Bektemir	544,3	100,3	8,8
Mirzo Ulugʻbek	407,8	101,6	6,6
Mirobod	585,0	109	9,4
Olmazor	679,4	131,4	11,0
Sergeli	337,2	129,4	5,4
Uchtepa	491,8	100,7	7,9
Chilonzor	690,5	100,7	11,1
Shayxontohur	529,1	102,2	8,5
Yunusobod	584,4	106,9	9,4
Yakkasaroy	670,0	103,4	10,8
Yashnobod	504,5	118,9	8,1
Yangiheyot	176,3	111,9	2,8

Tumanlar o'rtasida savdo xizmatlari bo'yicha o'tgan yilning mos davriga nisbatan yuqori o'sish sur'atlari Sirg'ali (141,4), Yangihayot (132,4 %), Mirzo Ulug'bek (128,3 %), Olmazor (156,0 %) tumanlarida qayd etildi. Savdo xizmatlari bo'yicha uncha yuqori bo'lmagan o'sish sur'atlari Bektemir (91,0 %), Sergeli (103,5%) va Yakkasaroy (104,1 %) tumanlarida qayd etildi.


Savdo xizmatlarning umumiy hajmida tumanlarning ulushi, foizda
(2022- yil yanvar–mart oylarida)



Tumanlar o'rtasida savdo xizmatlari bo'yicha yuqori ulushga ega bo'lgan Yunusobod (14,3 %), Shayxontohur (11,3) va Mirobod (11,0%) tumanlarida qayd etildi.

Savdo xizmatlari bo'yicha uncha yuqori bo'lmagan ulushga Yangihayot (2,9 %), Bektemir (3,9 %) tumanlarida qayd etildi.

Tumanlar bo'yicha savdo xizmatlarning hajmi, mlrd.so'mda
(2022 yil yanvar–mart oylarida)




Tumanlar o'rtasida savdo xizmatlari bo'yicha yuqori hajmga ega bo'lgan Chilonzor (690,5 mlrd. so'm), Olmazor(679,4 mlrd. so'm) ,Yakkasaroy (670,0 mlrd. so'm), Yunusobod (584,4 mlrd. so'm), Yashnobod (504,5 mlrd. so'm), tumanlarida qayd etildi.

Savdo xizmatlari bo'yicha uncha yuqori bo'lmagan hajmga Uchtepa (491,8 mlrd. so'm), Sergeli (337,2 mlrd. so'm),Yangihayot (176,3 mlrd. so'm) tumanlarida qayd etildi.

Transport xizmatlarining tarkibi, foizda

(2022- yil yanvar–mart oylarida)



Xizmatlar tarkibida transport xizmatlari – 9,4 % ulush bilan yetakchilar qatorini egallaydi. Yuklar va yo'lovchilarni tashish bo'yicha xizmatlar hajmining oshish omillari yangi bino va inshootlarni qurish va rekonstruksiya qilish, sanoat zonalarini tashkil etish va kengaytirish, savdo tarmoqlarini kengaytirish, turizm faoliyatini rivojlantirish hisoblanadi.

Transport xizmatlari tarkibida avtomobil transportining ulushi 9,4 % bilan ustunlikka ega.


**Tumanlar kesimida transport xizmatlarning hajmi,
2022 - yil yanvar-mart oylarida**

	<i>Jami</i>		
	<i>mlrd. so‘m</i>	<i>2021 yil yanvar-martga nisbatan, %</i>	<i>Transport xizmatlar hajmida tumanlarning ulushi, %</i>
Toshkent shahri	2644,5	118,4	100,0
<i>tumanlar:</i>			
Bektemir	161,5	109,6	6,1
Mirzo Ulug‘bek	289,8	125,8	11,0
Mirobod	313,8	107,7	11,9
Olmazor	261,7	133,8	9,9
Sergeli	502,0	155,2	19,0
Uchtepa	96,6	101,4	3,7
Chilonzor	218,0	100,7	8,2
Shayxontohur	171,3	100,4	6,5
Yunusobod	227,1	104,5	8,6
Yakkasaroy	165,0	130,0	6,2
Yashnobod	170,3	101,0	6,4
Yangihayot	67,3	136,3	2,5

Tumanlar o‘rtasida transport xizmatlari bo‘yicha o‘tgan yilning mos davriga nisbatan yuqori o‘sinh sur‘atlari Sergeli (155,2 %), Yangihayot (136,3 %) va Olmazor (133,8%) tumanlarida qayd etildi.

Transport xizmatlari bo‘yicha uncha yuqori bo‘lmagan o‘sinh sur‘atlari Yunusobod (104,5%), Uchtepa (101,4 %) va Yashnobod (101,0 %) tumanlarida qayd etildi.


Transport xizmatlarning umumiy hajmida tumanlarning ulushi, foizda
(2022- yil yanvar–mart oylarida)



Tumanlar kesimida transport xizmatlari bo'yicha eng yuqori ulush Sergeli (12,7 %), Mirobod (12,3 %), Yunusobod (9,7 %) va Mirzo Ulugbek (9,2 %) tumanlarida qayd etildi.

Transport xizmatlari bo'yicha uncha yuqori bo'lmagan ulush Yangiheyot (2,8 %), Bektemir (4,9 %) va Uchtepa (7,2 %) tumanlarida qayd etildi.

Toshkent shahrida aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining hajmi va o'sish sur'ati
(2022- yil yanvar-mart oylari)



**Tumanlar kesimida aloqa va axborotlashtirish
xizmatlarning hajmi,
2022- yil yanvar-mart oylarida**

	<i>Jami</i>		
	<i>mlrd. so'm</i>	<i>2021- yil yanvar- martga nisbatan, %</i>	<i>Aloqa va axborotlashtirish xizmatlar hajmida tumanlarning ulushi, %</i>
Toshkent shahri	2762,4	134,7	100,0
<i>tumanlar:</i>			
Bektemir	65,5	133,5	2,4
Mirzo Ulug'bek	250,3	123,8	9,1
Mirobod	361,2	126,5	13,1
Olmazor	296,2	145,7	10,7
Sergeli	106,9	128,5	3,9
Uchtepa	125,8	115,8	4,6
Chilonzor	235,2	109,1	8,5
Shayxontohur	349,0	137,6	12,6
Yunusobod	398,3	135,7	14,4
Yakkasaroy	271,7	165,8	9,8
Yashnobod	279,2	146,6	10,1
Yangihayot	23,1	151,3	0,8

Axborot texnologiyalarining rivojlanishi zamonaviy insonning turmush tarziga sezilarli darajada ta'sir qiladi. Yildan-yilga odamlar internet va mobil telefonlardan foydalangan holda operatsiyalarni amalga oshirish uchun ko'proq imkoniyatlarga ega bo'lmoqda. Zamonaviy biznesni rivojlantirishda axborot va xizmatlardan real vaqtda masofaviy erkin foydalanish huquqi muhim o'rin tutadi.


Bugungi kunda Toshkent shahrida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini (AKT) davlat boshqaruvi tizimida, iqtisodiyotning tarmoqlarida, ijtimoiy soha va odamlarning kundalik hayotida joriy etishni izchil amalga oshirishga qaratilgan keng ko'lamli ishlar olib borilmoqda.

2022-yil yanvar– mart oylarida Toshkent shahri bo'yicha aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmi 2762,4 mlrd. so'mga teng bo'ldi. 2021- yil yanvar–mart oylariga nisbatan aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining o'sishi sur'ati 134,7 % ni tashkil etdi.

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmida eng katta ulush (54,3 %) telekommunikatsiya xizmatlari (simli va mobil aloqa xizmatlari, internet, yo'ldosh aloqa xizmatlari va b.q.) hissasiga to'g'ri keladi.

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari tarkibi, foizda

(2022- yil yanvar–mart oylari uchun)



Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) va moliya-kredit muassasalari xizmatlari tez rivojlanayotgan xizmat turlari hisoblanadi. Yangi texnologiyalarga va bozorni erkinlashtirish natijalariga tayanib, bu faoliyat turlari hozirgi vaqtda rivojlanishning yangi bosqichi sifatida paydo bo'ldi va bugungi kunda jamiyatning texnologik taraqqiyoti va iqtisodiyotning globallashtirishida hal qiluvchi rol o'ynaydi.

Ko'rsatilayotgan xizmatlar sifatini oshirish, AKT sohasida innovatsiyalarni joriy etish bo'yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar natijasida yangi turdagi xizmatlarning paydo bo'lishi aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmini oshirishga ta'sir ko'rsatadi.

Tumanlar o'rtasida aloqa va axborotlashtirish xizmatlari bo'yicha o'tgan yilning mos davriga nisbatan yuqori o'sish sur'atlari Yakkasaroy (165,8%), Yangiyo'lt (151,3%), Yashnabod (146,6%) va Olmazor (145,7%) tumanlarida qayd etildi.

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari bo'yicha uncha yuqori bo'lmagan o'sish sur'atlari Mirzo Ulug'bek (123,8 %), Uchtepa (115,8 %) va Chilonzor (109,1 %) tumanlarida qayd etildi.

**Aloqa va axborotlashtirish xizmatlarning umumiy hajmida
tumanlarning ulushi, foizda
(2022- yil yanvar-mart oylari)**




Tumanlar o'rtasida aloqa va axborotlashtirish xizmatlari bo'yicha yuqori ulush Yunusobod (14,4 %), Mirobod (13,1 %), Olmazor (12,4 %), va Shayxontohur (12,6 %) tumanlarida qayd etildi.

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari bo'yicha uncha yuqori bo'lmagan ulush Yangiayot (0,8 %), Bektemir (2,4 %) va Sergeli (3,9 %) tumanlarida qayd etildi.

Pul-kredit tizimini isloh qilish dasturida bank tizimini barqarorligini ta'minlash, xalqaro standartlarga muvofiq bank faoliyatini yanada takomillashtirish, qo'shimcha investitsiyalarni jalb qilish, bank va sug'urta tashkilotlariga ko'rsatiladigan axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda yangi xizmat turlarini joriy etish, moliyaviy xizmatlar hajmini yanada kengaytirishga alohida e'tibor qaratilmoqda.


**Toshkent shahrida o'tgan yilning mos davrlariga nisbatan moliyaviy
xizmatlarning o'sish sur'atlari, foizda**
(2022- yil yanvar–mart oylari)



Natijada, 2022-yil yanvar–mart oylarida ko'rsatilgan moliyaviy xizmatlar hajmi 9719,5 mlrd. so'mga teng bo'ldi, o'sish 139,9 % ni tashkil etdi.

Moliyaviy xizmatlarning tarkibi, foizda

(2022- yil yanvar–mart oylari)



Valyuta siyosatini erkinlashtirish, shuningdek, istiqbolli investitsiya loyihalarini kreditlash ko'lamini kengaytirish, moliyaviy tashkilotlar tomonidan innovatsion xizmatlar ko'rsatish (kredit berish va depozit hisob raqamlarni ochish bo'yicha elektron xizmatlar ko'rsatish) borasida amalga oshirilayotgan islohotlar moliyaviy xizmatlar hajmining oshishiga ta'sir ko'rsatdi.

Moliyaviy xizmatlar umumiy hajmida sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlar ulushi (87,7 %) ustunlik qilmoqda. Moliyaviy xizmatlar umumiy hajmida sug'urta xizmatlarining ulushi 7,6 % ni, yordamchi moliyaviy faoliyat 4,7 % ni tashkil etdi.

**Hududlar kesimida moliyaviy xizmatlarning hajmi
2022- yil yanvar-mart oylarida**

	<i>Jami</i>		
	<i>mlrd. so‘m</i>	<i>2021- yil yanvar- martga nisbatan, %</i>	<i>Moliyaviy xizmatlar hajmida tumanlarning ulushi, %</i>
Toshkent shahri	9719,5	139,9	100,0
<i>tumanlar:</i>			
Bektemir	58,6	102,0	0,6
Mirzo Ulug‘bek	1083,5	195,3	11,1
Mirobod	1103,2	127,8	11,4
Olmazor	508,1	114,9	5,2
Sergeli	291,5	152,2	3,0
Uchtepa	489,4	112,6	5,0
Chilonzor	1170,7	100,3	12,0
Shayxontohur	1220,5	136,3	12,6
Yunosobod	2015,5	145,8	20,7
Yakkasaroy	804,6	168,1	8,3
Yashnobod	547,8	128,1	5,6
Yangiheyot	426,1	149,3	4,4


Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar

2022-yil yanvar–mart oylariga nisbatan yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarining o'sish sur'ati 110,8 % ni, hajmi esa 849,1 mlrd. so'mga yetdi.

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar hajmida oziq-ovqat va ichimlik suvi bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar ulushi 80,0 % bilan ustunlik qiladi. Yashash bo'yicha xizmatlar ulushi 20,0 % ni tashkil etdi.

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar hajmini taqqoslash, mlrd.so'm


(2022- yil yanvar–mart oylarida)



Yashash va ovqatlanish xizmatlari bo'yicha eng katta hajm Shayxontohur tumanida 220,5 mlrd. so'm qayd etildi. Eng kichik hajm esa Yangi hayot tumanida 3,9 mlrd. so'm kuzatildi.

Toshkent shahri bo'yicha xizmatlarning umumiy hajmida tumanlarning ulushi, foizda

(2022- yil yanvar–mart oylari uchun)




Ko'rsatilgan xizmatlar umumiy hajmida eng kichik ulushlarni Uchtepa (5,6 %), Bektemir (3,9 %), Yangiheyot (2,9%) tumanlari egallaydi.

**Tumanlar kesimida ishlab chiqarilgan (ko'rsatilgan)
bozor xizmatlarning hajmi,
2022- yil yanvar-mart oylarida**

	<i>Jami</i>			<i>Aholi jon boshiga</i>	
	<i>mlrd. so'm</i>	<i>2021- yil yanvar- martga nisbatan, %</i>	<i>Jami xizmatlar hajmida hududlarning ulushi, %</i>	<i>ming so'm</i>	<i>2021- yil yanvar- martga nisbatan, %</i>
Toshkent shahri	27997,5	119,8	100,0	9751,5	112,9
<i>tumanlar:</i>					
Bektemir	1083,0	108,9	3,9	21028,5	66,8
Mirzo Ulug'bek	2806,6	128,3	10,0	8924,1	116,5
Mirobod	3069,8	114,7	11,0	20982,6	112,2
Olmazor	2414,4	119,2	8,6	6245,1	116,5
Sergeli	1589,6	141,4	5,7	10806,0	102,2
Uchtepa	1563,2	105,9	5,6	5452,3	103,1
Chilonzor	2990,7	109,0	10,7	11188,5	106,7
Shayxontohur	3176,3	117,7	11,3	8939,9	115,6
Yunusobod	4002,0	125,1	14,3	11119,7	122,2
Yakkasaroy	2578,3	127,7	9,2	20742,5	125,3
Yashnobod	1915,0	120,4	6,8	6851,5	111,9
Yangiheyot	808,8	132,4	2,9	5317,5	117,9

Aholi jon boshiga ko'rsatilgan xizmatlar bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich Bektemir tumanida – 21028,5 ming. so'mga teng bo'lib, o'sish sur'ati o'tgan yilning shu davriga nisbatan 66,8 % ni tashkil etdi.

**Tumanlar bo'yicha aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor
xizmatlarining hajmi va o'sish sur'ati**
(2022- yil yanvar–mart oylari uchun)



Aholi jon boshiga ko'rsatilgan xizmatlarning eng past ko'rsatkichi Shayxontohur (8939,9 ming so'm), Mirzo Ulug'bek (8924,1 ming so'm), Yashnobod (6851,5 ming so'm), Olmazor (6245,1 ming so'm), Uchtepa (5452,3 ming. so'm) va Yangiheyot (5317,5 ming. so'm) tumanlarida kuzatildi.

Tumanlar o'rtasida yuqori o'sish sur'atlari Yakkasaroy (125,3 %) va Yunusobod (122,2 %) tumanlarida kuzatildi.

Tumanlar o'rtasida past o'sish sur'atlari Bektemir (66,8 %) va Sergeli (102,2 %) tumanlarida kuzatildi.

V. TRANSPORT

Yuk tashish. 2022-yil yanvar-mart oylarida barcha transport turlari tomonidan 40,9 mln. tonna yuk tashilgan bo'lib, bu o'tgan yilning shu davriga nisbatan 96,2 foizni tashkil etdi.

Yuk aylanmasi barcha transport turlari tomonidan 437,8 mln.tn-km. bo'lib, 105,1 foizni tashkil qildi.

Yuk tashish va yuk aylanmasi transport turlari bo'yicha quyidagicha ifodalanadi:

Transport turlari bo'yicha yuk tashish va yuk aylanmasi hajmi

	2022- yil yanvar-mart	2021- yil yanvar-martga nisbatan, foiz hisobida
Tashilgan yuk, mln. tn	40,6	96,2
<i>shu jumladan:</i>		
avtomobil transportida	40,6	96,2
Yuk aylanmasi, mln. tn-km	437,8	105,1
<i>shu jumladan:</i>		
avtomobil transportida	437,8	105,1

Yakka tartibdagi tadbirkorlarning avtomobil transportining yuk aylanmasi 2021-yil yanvar–martga nisbatan 1,4 foizga kamaydi va 55,4 mln. tn-km.ni tashkil qildi.

Yuk aylanmasining umumiy hajmida xususiy yuk tashuvchilarning ulushi 22,1 foizni tashkil etdi (2021- yil yanvar– martda 8,2 foiz).

Yo'lovchi tashish. 2022-yil yanvar-mart oylarida barcha transport turlari tomonidan 304,1 mln.kishi tashilgan bo'lib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 12,5 foizga ko'paygan. Yo'lovchi tashish aylanmasi ushbu davrda 11,0 foizga oshib, 2761,4 mln. yo'lovchi-km. ni tashkil qildi.

**Transport turlari bo'yicha yo'lovchi tashish va yo'lovchi
aylanmasi quyidagicha ifodalanadi**

	<i>2022- yil yanvar- mart</i>	<i>2021- yil yanvar- martga nisbatan, foiz hisobida</i>
Transportda tashilgan yo'lovchilar, mln. kishi	330,0	110,1
shu jumladan, avtomobil transportida	304,1	112,5
Yo'lovchi aylanmasi, mln. yo'lovchi-km	2953,2	110,1
shu jumladan, avtomobil transportida	2761,4	111,0

Xususiy yo'lovchi tashuvchilar avtomobil transportida yo'lovchi aylanmasi 2021 -yil yanvar-martga nisbatan 12,5 foizga ko'paydi va 304,1 mln.yo'lovchi-km.ni tashkil qildi. Yo'lovchi aylanmasining umumiy hajmida xususiy yo'lovchi tashuvchilarning ulushi 69,7 foizni tashkil etdi (2021 -yil yanvar-martda 80,3 foiz).